

Muammoning dolzarbligi. Ilk bolalik va maktabgacha yoshdagagi bolalarning psixologik xususiyatlarini ilmiy, nazariy jihatlarini o'rganish oliv pedagogik ta'linda muhim amliy ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan ta'kidlash lozimki, jamiyat - bu insonlar, shu jumladan bolalar muammoasi majmuidir. Demokratik jamiyatning rivojlanishi va ma'naviy salohiyati ko'p jixatdan ana shu bolalarga beriladigan psixologik, tarbiyaviy ta'lim mazmuniga bog'liq. Har bir bola jamiyatda yashar ekan, u unda o'ziga xos o'rinni va mustaqil mavqe egallashga intiladi, shuning uchun u o'ziga xos intilish, layoqat va faollik, intelektual mehnat namunalarini namoyish etadi. Bolalar o'rtasidaga o'zaro munosabatlarni hamda har bir shaxsning jamiyatdaga o'rni va uning turlicha ijtimoiy munosabatlari tabiatini o'rganuvchi qator pedagogik fanlar mavjud bo'lib, ularning orasida psixologiya alohida o'rinni egallaydi. Pedagogik psixologiya fani bolalar shaxsining tarkib topishini va ularni o'qitish masalalarini o'rganar ekan, birinchi navbatda bolalar psixologiyasi bilan maxkam bog'liqdir, chunki bolalarning yosh va individual xususiyatlarini xisobga olmay turib, o'quvchilar shaxsining tarkib topishini, ularni o'qitish va tarbiyalashning psixologik qonuniyatlarini aniqlab bulmaydi.

Pedagogik psixologiyani o'qitish va tarbiyaning asosini o'rganib va ishlab chikib, o'qitishning va tarbiyaning mazmunini tashkil qiladigan darsliklarga va turli o'quv qurollariga bo'lgan talabni aniqlash, o'qitish va tarbiyaning rasional va samarali metodlarini topish, o'quvchi yoki tarbiyalanuvchilarning bilimlarga e'tiqod kilishiga erishish qonuniyatlarini ochish; o'quvchilarni mehnat va ijtimoiy faolyatiga tayyorlashning psixologik asoslarini ishlab chikish imkoniyatiga egadir. Pedagogik psixologiyaning vazifasiga, shuningdek, o'quvchilar va o'qituvchilar, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o'zaro munosabati, o'qituvchi shaxsiga nisbatan qo'yiladigan talablarni o'rganish, o'qituvchilik qobiliyatining mazmunini va uning tarkib topishini ohib berish va boshqa masalalarni ham o'rganish kiradi. Pedagogik-psixologiya ta'lim muassasalarida o'qitish prosessida o'quvchilar tomonidan bilim va malakalarini egallahning qonuniyatlarini va tarbiya jarayonida bola shaxsining tarkib topishini o'rganadi.

O'qitish va tarbiyalashning psixologik qonuniyatlarini o'rganish pedagogik psixologiyaning predmetini tashkil qiladi. Bu fan o'quvchilar va tarbiyalanuvchilar tafakkurining shakllanishini o'rganadi; o'zlashtirish prosessini idora qilish, aqliy faoliyat usullari va malakalarining tarkib topish muammolarini tahlil qiladi, o'qitish jarayonining, o'quvchi va o'qituvchi, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi munosabatlarning, ta'lim oluvchilar jamoasidagi o'zaro munosabatlarning muvaffaqiyatli bo'lishiga ta'sir qiladigan psixologik faktorlarni aniqlaydi; o'quvchilarning individual psixologik tafovutini, bolalar bilan olib boriladigan o'quv-tarbiya ishlarining psixologik xususiyatlarini o'rganadi. O'smir psixologiyasining predmeti rivojlanayotgan inson shaxsining psixologik

xususiyatlari va psixik jarayonlari ontogenetikini, inson psixikasining har bir yosh davridagi o'zgarishini o'rganadi. Pedagogik psixologiyaning predmeti ta'lif tarbiyaning psixologik qonuniyatlarini tashkil qiladi. Pedagogik psixologiya ta'lif jarayonini boshqarishning psixologik masalalarini o'rganadi. Bilish jarayonlarining rivojlanishini tahlil qiladi. Aqliy taraqqiyotning ishonchli mezonlarini izlaydi. Tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar orasidagi o'zaro masalalarni o'rganadi. Bundan tashqari pedagogik-psixologiya bolalarga individual yondashuv masalalarini ham o'rganadi.

Go'daklik va ilk bolalik davri psixologiyasi xususiyatlari Go'daklik davri bolaning tug'ilganidan bir yoshlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, bu davrda bola tashqi muhitga moslashishi uchun ma'lum darajada yetilgan nerv tizimi bilan tug'iladi. Go'daklik davri inson hayotidagi organiq ehtiyojlarni (kislorodga, ovqatga, issiq yoki sovuqqa) qondirishga nisbatan yo'naltirilgan xatti harakatlarning tug'ma, instinktiv shakllari sof holda kuzatiladigan yagona davr hisoblanadi. Insonga xos bo'lgan xatti-harakatlar, yangi tajribalarni egallash uchun beqiyos imkoniyatlarning borligi go'daklik yoshidagi bolalarning asosiy xususiyatlaridir. Agar organiq ehtiyojlar yetarli darajada qondirib borilsa, ular o'zlarining asosiy bo'lish ahamiyatini yo'qotadi: to'g'ri Tashqil etilgan kun tartibi, rejim va tarbiya natajasida bola psixik rivojlanishi uchun asos bo'ladigan taassurotlarga, harakatta, muloqotga nisbatan yangi turdag'i ehtiyojlar turkumi yuzaga keladi. Bola tug'ilishning birinchi haftasidanoq uning ko'rish va eshitish sezgilari jadal suratda rivojlanadi. Bola harakatlanayotgan narsani kuzata boshlaydi. U turli ovozlarga, jumladan, kattalarning tovushlariga e'tibor bera boshlaydi, Yangi tug'ilgan chaqaloqning miya og'irligi kattalar miyasining 1/4 qismiga to'g'ri keladi, nerv hujayralarning soni esa xuddi kattalarniki kabi bo'lib, lekin ular yetarli darajada rivojlanmagan bo'ladi. Ilk go'daklik davri - bu bolaning himoyasiz, kam harakat, harakat holatidan juda jadal ravishda rivojlanadigan, quvnoq bolaga aylanish davridir. U qisqa vaqt ichida kattalar bilan munosabat o'rnatadi, predmetlarni ushlashga va ulardan foydalanishga o'rganadi. U atrof olamdag'i narsalarni kuzatadi, predmetlarni qo'li bilan ushlab, o'larni qandayligini bilishga intiladi, tovushlarga e'tibor beradi va predmetlar yordamida shu tovushlarni o'zi yaratishga harakat qiladi. U o'z onasi va boshqa yaqinlari bilan emosional munosabatga qirishadi. Go'dak yoshidagi bola ham jismonan, ham psixik, ham ijtimoiy jihatdan juda tez rivojlanadi. Juda qisqa vaqt ichida atrofidagi hodisalarga juda kam reaksiyasi bo'lgan boladan, faol, tez ilgaydigan, harakatchan yordamga chaqira oladigan, kattalarning yaqin kelishidan quvonadigan bolaga aylanadi. Go'daklik davridagi bolaning hayoti to'liq kattalar bilan hamqorlikdagi emosional munosabat bilan bog'liq bo'lib, bola kayfiyatining yaxshi bo'lishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. 4-5 oyligidan boshlab, bola o'z yaqinlarini

begonalardan ajrata boshlaydi. Kattalar bilan emosional munosabat shu yoshdag'i bolalarning asosiy yetakchi faoliyati bo'lib, bola psixik taraqqiyotining asosi bo'lib hisoblanadi. Kattalarning doimiy ravishda bola bilan birga bo'lishi, unga nisbatan didatik qaratilishiga odatlanishi, uning o'yinchoqlarga nisbatan qiziqishning susayishiga olib kelishi mumkin. Tarbiyaning to'g'ri olib borilishi bolaning kattalar bilan bo'ladigan muomala-munosabatini predmetlar, o'yinchoqlar bilan munosabatining almashinishiga olib keladi. Kattalar yordami bilan bajariladigan barcha xatti-harakatlari bolaning kelgusi psixik rivoji uchun asos bo'ladi.

Kattalarning bolaga nisbatan emosional munosabati, ularning gaplariga bolaning o'z diqqatini qaratish, javob qaytarishga harakat qilishi, ba'zi so'zlarni yodida saqlab qolib, emosiya bildirishi, diqqat, xotira, nutq va boshqa bilish jarayonlarining rivojlanishiga zamin bo'ladi. Ikki oylik davridan boshlab bolada oddiy ranglarni ajratish, 3-4 oyligidan boshlab, esa predmetlarning shaklini ajratish layoqati yuzaga kela boshlaydi, Go'dak bola 2 oylik vaqtidan boshlab, o'z onasining yuzini va ovozini o'zgalarnikidan ajrata boshlaydi. 2-3 oylikdan boshlab esa, onasining tabassumi va kulgasiga tabassum va turli harakatlar bilan javob qaytaradi. 3-4 oyligidan boshlab, bolalar yaqinlariga o'z harakatlari bilan ko'rish, eshitish yoki gapirishni xohlayotganligini ko'rsatadilar, 8 oyligidan boshlab esa, bola o'zgacha muhit va begonalar qo'liga tushsa, o'z xavotirini yigasi orqali namoyon etadi. Bu xavotir 14-18 oyligida asta-sekinlik bilan kamaya boshlaydi. 2-3 oylik bolalarda gozaga keladigan narsalarni ushlay olish harakatlarining shakllanishi ularda predmetlarning shakli va xajmini idrok qilishlarini rivojlanishiga olib keladi. Bir yeshga yettan bolada atrof muhitni bilishga qiziqishi va rivojlanayotgan bilish faolligi ko'zga tashlanadi. Ilk bolalik davri: Go'daklik davridan so'ng rivojlanishning yangi bosqichi ilk bolalik (1-3 yosh) davri boshlanadi. Ilk bolalik davri bola hayotidagi eng ahamitga molik, uning kelajakdagi psixologik rivojlanishini belgilab beruvchi muhim davr xisoblanadi. Bu davrdagi rivojlanishning asosini bolaning to'g'ri yurishi, muloqotga kirishishi va predmetli faoliyatni egallash xususiyatlari Tashqil etadi. Tikka va to'g'ri yura olish imkonи bolani, doimiy ravishda yangi ma'lumotlarni egallahsha zamin bo'ladi. Bu yoshdag'i bolalar o'z xatti-harakatlari bilan juda faol va kattalar bilan muloqotga kirishishga intiluvchan bo'ladi. 1-3 yoshdag'i bola shakllanishda psixik rivojlanishning o'ta ahamiyatliliginini inobatga olgan holda, ayrim psixologlar (R.Zazzo) inson tug'ilganidan to yetuklik davrigacha bo'lgan psixik rivojlanishining taxminan o'qishlari, 3 yoshga to'g'ri keladi, degan mulohazani bildiradilar. Bu yoshdan boshlab, bolalar predmetlarni o'rganish olamiga qadam quyadilar. U endi kattalar bilan nutq orqali muomala-munosabatda bola oladi va sodda axloq qoidalariga amal qila boshladilar. Kattalar bilan bo'ladigan muloqoti tufayli bola atrof hayot haqida ko'proq ma'lumot oladi. Nutq - bu yoshlarda

nafaqat muloqot, balki bola tafakko’rining rivojlanishi va o’zini-o’zi, shuningdek, bilish jarayonlarini boshqarish vositasi bo’lib ham xizmat qiladi. Ilk davrdagi bolalarning yetakchi faoliyat turi-predmetlarni o’rganish hisoblanadi. Go’daklak davridagi bolalarga nisbatan, ilk bolalik davridagi bolalar atrof muhitdagi narsa va hodisalarga nisbatan ko’proq qiziqish bilan qaraydilar. Agar, go’dak bola qo’liga ushlagan narsani oddiy harakatlar bilan kuzatsa, 2-3 yoshdagi bola shu predmet qismlarini diqqat bilan o’rganganidan so’nggina, o’z amaliy faoliyatida ishlata boshlaydi. Bolani dastlab, ayni shu predmetlarning qo’llanish vazifasi, mohiyati qiziqtirib, u o’z savoliga javob olish maqsadida ko’pincha kattalarga “Bu nima?» degan savol bilan murojaat qiladilar. 3 yoshlar arafasida predmetlarning vazifalarini tula o’zlashtirgan bolalar, o’z o’yinlarida, shu predmetlardan maqsadsiz foydalanib qolmay, balki ularni o’z vazifalariga ko’ra ishlatadilar ham. Bolaning nutqi u 1,5 yoshga qadar yetgungacha birmuncha sekinlik bilan rivojlanadi. Bu davr ichida u 30-40 ta so’zdan, to 100 tagacha so’zni o’zlashtiradi, lekin ularni amaliyotda juda kam qullaydi. 1,5 yoshdan boshlab esa, uning nutqi jadal rivojlna boshlaydi. Endi bola predmetlarning nomlarini aytishlarini so’rabgina qolmay, balki bu so’zlarni o’zi talaffuz etishga ham harakat qiladi. Nutqining rivojlanish darajasi jadallahadi, 2 yoshlarning oxirlariga borib, bola 300 tagacha, 3 yoshlarning oxirlariga borib zsa, 500 dan to 1500 tagacha so’zni o’z nutqida ishlata oladi, shuningdek, so’zlarni ham aniq talaffuz etib, jumlalarni to’g’ri to’za oladilar. Shuni alohida ko’rsatish joizki, 1,6 3 yoshlar nutqning rivojlanishi uchun senzitiv davr hisoblanadi. Bu davr aqliy rivojlanishning asosini, idrok va tafakkur harakatlarining yangi ko’rinishlarini Tashqil etadi. 1 yoshli bola predmetlarni izchil, sistemali ravishda ko’rib chiqa olmaydi. U asosan predmetning qandaydir bir ko’zga tashlanib to’radigan belgisiga o’z e’tiborini qaratadi va predmetlarni shu belgilariga ko’ra taniydi. Keyinchalik yangi idrok harakatlarining egallanishi bolaning predmetli harakatlarini bajarishdan ko’z bilan chamalab, harakat qilishiga o’tishda namoyon bo’ladi, endi u predmetning bo’laklarini ushlab ko’rmasdan, balki chamalab idrok eta oladi. 2,5-3 yoshli bola kattalarning ko’rsatgan namunasi, rangi shakli va kattaligiga ko’ra, aynan shunday predmetlarni chamalab, idrok etgan xolda to’g’ri topa oladi. Bolalar avval shakliga, so’ngra kattaligiga va undan keyingina rangiga qarab ajrata oladilar. Bu jarayonda bola bir xil xususiyatga ega bo’lgan juda ko’p predmetlar mavjudligini tushuna boshlaydi. Lekin, bola rasm chizishni boshlagani davrida predmetlarning rangini e’tiborga olmaydi va o’ziga yoqadigan ranglardan foydalanadi. Tadqiqotlarning ko’rsatishicha 2,5-3 yoshli bola 5-6 ta shaklni (doira, kvadrat, uchburchak, to’g’riburchak, ko’pburchak) va 8 xil rangni (kizil, qovoq sariq, sariq, yashil, ko’k, siyohrang, oq, qora) idrok etishi mumkin. Rang va shakllarning maqsadga muvofiq ishlatilishi jihatidan turli xil narsalarda turlicha namoyon bo’lishi sababli, bu

yoshdagi bolalar ularni idrok etganlari bilan ularning nomlarini aniq bulishlari va o’z nutqlarida ishlata olishlari birmuncha qiyinroq. Kattalarning bu yoshdagi bolalardan ana shu rang va shakllarni eslab qolishini talab etishlari birmuncha noto’g’ridir, buning uchun mos davr 4-5 yoshlar hisoblanadi. 26 Bola 3 yoshigacha o’zlashtirgan so’zlar asosan predmet va harakatlarning nomlarini bildiradi. Nomlar asosan uning vazifasini anglatadi, bunda predmet yoki harakatning tashqi ko’rinishi o’zgarsa ham uning nomi o’zgarmaydi. Shuning uchun ham bola predmetlarning nomlarini ishlatilishini funksiyalariga bog’lagan holda tez o’zlashtiradi. Ilk bolalik davrining boshlariga kelib, bolada birinchi tafakkur operasiyalari yuzaga keladi. Buni bola biror predmetni olishta harakat qila olganidan so’ng, uni sinchiklab o’rganishida ko’rishimiz mumkin. Ularning tafakkurlari, asosan, ko’rgazmaliharakatli bo’lib, u atrof olamdagи turli bog’liqliklarni o’rganishga xizmat qiladi. O’zidan uzoqroq turgan koptokni biron-bir o’zunroq narsa bilan itarib yuborish mumkinligini ko’rgan bola, endi mustaqil ravishda divan tagiga kirib ketgan koptokni tayoqcha yordamida olish mumkinligini tafakkur eta oladi, Bu davrdagi bolalar tafakkurida umumlashtirish katta o’rin-tutadi. Umumlashtirishda nutq muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, soat deyilishi bilan bola qo’l soatini yoki devordagi osma soatni ham tushunishi mumkin, Lekin, ular turlicha bo’lganligi bois, ularda umumiylilikni topish bola uchun birmuncha qiyinroq hisoblanib, bu borada fikrlash yordamga keladi va umumlashtirishni Tashqil etadi. Ilk bolalik davrining boshlariga kelib, bolada birinchi tafakkur operasiyalari yuzaga keladi. Buni bola biror predmetni olishta harakat qila olganidan so’ng, uni sinchiklab o’rganishida ko’rishimiz mumkin. Ularning tafakkurlari, asosan, ko’rgazmali-harakatli bo’lib, u atrof olamdagи turli bog’liqliklarni o’rganishga xizmat qiladi. O’zidan uzoqroq turgan koptokni biron-bir o’zunroq narsa bilan itarib yuborish mumkinligini ko’rgan bola, endi mustaqil ravishda divan tagiga kirib ketgan koptokni tayoqcha yordamida olish mumkinligini tafakkur eta oladi, Bu davrdagi bolalar tafakkurida umumlashtirish katta o’rin-to’tadi. Umumlashtirishda nutq miштим ашамият kasb etadi. Masalan, soat deyilishi bilan bola qo’l soatini yoki devordagi osma soatni ham tushunishi mumkin. Lekin, ular turlicha bo’lganligi bois, ularda umumiylilikni topish bola uchun birmuncha qiyinroq xisoblanib, bu borada fikrlash yordamga keladi va umumlashtirishnitashkil etadi. 2-3 yoshli bolalar ma’lum bir predmetlarning o’rniga ularning o’rnini bosishi mumkin deb шисобланган boshqa narsalardan ham foydalanadilar. Masalan, o’zin jarayonida bola qoshiq 27 yoki termometr o’rnida, yogochdan yasalgan krovat yoki mashina o’rnida foydalanishi mumkiin. Bir predmetni boshqasi o’rnida qo’llaniladi. Uch yoshgacha bo’lgan bolalarning psixik rivojlanishidagi asosiy yangi o’zgarishlar. Yosh davrlari Bilishi Harakati Muloqoti 3 yosh Nutqning shakllanishi. Obrazli tafakkurning dastlabki nishonalari. Atrof

muhitdan o'zini ajratishi. qat'iylikni anglash. qo'l predmetli harakatlarning rivojlanganligi. O'z hatti harakatlarini irodaviy boshqarishning kyrinishlari O'z-o'zini anglashni yuzaga kelishi, Dastlabki axloqiy qoidalarni egallashi 2 yosh Faol nutqni tushunishi va o'zida yuzaga kelishi qo'l va oyoq funksiyalarining aniq belgilanishi Harakter asoslarining shakllanishi 1 yosh Nutqni tushunishning dastlabki belgilari Mustaqil holda tik turish va yurish Nutqni Qo'llashning dastlabki belgilari 10 oylik Bog'liklik reaksiyasini yuzaga kelishi begona muxit va begonalar orasida xavotirlik 8 oylik Sensa 28 shakllanishi o'tirilishi javob qaytarishi 2 hafta Onaning tovushini boshqa tovushlardan farqlashi 1 hafta Harakatlarni kuzatishi 1.3.Ilk bolalik davrida bolalar shaxsining rivojlanishi Odamzod bolasi boshqa jonzodlar bolasiga nisbatan ancha zaif tug'iladi. Unda zarur fiziologik funksiyalarning kechishi uchun zarur bo'lgan shartsiz reflekslari, himoya refleksi va oriyentirovka reflekslaridir. Chaqaloqlik davrida bosh miyaning rivojlanishining zarur sharti – analizatorlarning aktiv ishlashidir. Agar chaqaloq sensor izolyasiya holatiga tushib qolsa, uning rivojlanishi keskin ravishda orqada qola boshlaydi. 2-3 oylikka borganda bolaga tashqi muhitga va kattalarga nisbatan maxsus emosional harakat paydo bo'ladi. Oyoqi va qo'llari bilan tipirchilay boshlaydi. Bu reaksiya jonlanish kompleksi deb ataladi. Uning paydo bo'lishi chaqaloqlik davri tugaganligini bildiradi. 2-3 oydan 1 yoshgacha davrni go'daklik davri o'z ichiga oladi. Bu yosh davrda yetakchi faoliyat kattalar bilan emosional muloqotdir. Bu muloqot sekinasta birgalikda faoliyatga aylanib boradi. Muloqot davomida nutqning asoslari rivojlanib boradi. 2 oydanoq bolalarda g'o'ldirash belgilari paydo bo'ladi. Sekin-asta taqlid asosida bola ona tilining fonemasini o'zlashtira boshlaydi. 1 yoshda bola 30-40 ta so'zni o'zlashtirish kerak. Kattalar bilan muloqot davrida bolaga yurish, predmetlar bilan harakat qilish o'rgatilgandagina bola tarbiyalanadi va psixik taraqqiyot yuz beradi. O.Bryune ma'lumotlariga ko'ra bolalar hayot sharoiti va tarbiya uslubidan qat'iy nazar psixik rivojlanishda bir xil natija ko'rsatadilar. 1 yoshgacha bo'lgan davrda ota-onasidan ajralgan bolalar oiladagi sharoitidan kat'iy nazar psixik rivojlanishdan orqada qolar ekanlar. 1 yoshgacha bo'lgan davrda bola psixik jarayonlar va sifatlarning rivojlanishida katta natijalarga erishadi. Avval boshini tutishni, emaklashni, 6 oyga 29 borib, o'tirishni o'rghanadi. 3-4 oylikdayoq predmetlarni ushlay boshlaydi va harakatlarni namoyon qiladi. Bu harakatlar avvaliga tartibsiz bulib, bola ko'p xato qiladi, keyinchalik sekin-asta harakatlar aniqlasha boradi. Go'dak predmetlar bilan oddiy maniqulyasiya qilishni o'rghanadi. So'ngra bu oddiy harakatlar ichki planga – ko'rish idroki planiga o'ta boshlaydi. Go'daklikning oxiriga kelib bolalarga taqlidchanlik kuchayadi. Ilk bolalik davri. Ilk bolalik davrining oxiriga kelib boshqa faoliyat turlari, masalan, qiyin va produktiv faoliyati (rasm chizish, plastilindan narsa yasash) rivojlana boshlaydi. Bu yosh davri nutqning

rivojlanishidagi senzitiv davri hisoblanadi. 1,5 yoshgacha bola 100 tacha, 2 yoshgacha 300 tacha, 3 yoshgacha 1500 so'zni o'zlashtiradi. Tilning grammatik tuzilishini o'zlashtirish bir necha bosqichga bo'linadi. 1. Avtonom nutq davri 1-2 yoshda bo'lib, nutq amorif so'z o'zaklardan iborat. 2. 3 yoshgacha davrda esa ona tilining grammatik tuzilishini o'zlashtira boshlaydi. Ilk bolalik davrida predmetlik faoliyati asosida tafakkur rivojlana boshlaydi. Tushunishning eng qulay (senzitiv) davri bir yoshdan bir yarim yoshgachadir. Bu davrda bola predmet va jismlarning nomlarini yengil o'zlashtirib oladi.